

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILINI O'RGANISHDA O'YIN FAOLIYATI

*Tog'ayeva Charos Rasulovna*  
*Ilmiy rahbar. Iskandarova Nilufar Toxirovna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha yosh bolalarda chet tillarini o'rgatish, ularning chet tillarini o'rganishdagi qiziqishlari, rivojlanayotgan davlatimizda maktabgacha yosh ballalarga chet tilini o'rgatish bo'yicha qarorlar.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, zamonaviy yondashuv, o'qitish metodikasi, til o'rgatish, axborot texnologiyalaridan foydalanish...

### KIRISH

Maktabgacha ta'lim-bolalarimizning talimi va tarbiyasining ilk bosqichi hisoblanadi. Malumki so'nggi yillarda chet tilini o'rganish inson tafakkurini rivojlantirishning bir usuli emas balki ijtimoiy faoliyat bo'lib qoldi. Chet tilini o'qitish uzluksiz ta'lim tizimining deyarli barcha bosqichlarida majburiy qism sifatida o'qitiladi. Nafaqat jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab balki boshqa tomondan ota-onlar tomonidan ham kichik yoshdagi farzandlarini maktabgacha yosh bo'lgan davrida chet tilini o'ravishda muhim e'tibor qaratilmoqda. Yana bir tomondan esa bugungi davrda chet tilini o'rganish vaqt taqozosi, ijtimoiy faoliyat talabi deyishimiz mumkin.

Til nafaqat zamonaviy insonni tarbiyalashning omili, jamiyatdagi ijtimoiy-moddiy farovonligining asosi sifatida ham qaraladi. Hozirgi vaqt bilan oldingi 10 yoki 15 yil oldingi davrni taqqoslaydigan bo'lsak, xorijiy tilni bilish faqat ma'lum bir soha mutaxassislari uchun talab qilingan bo'lsa hozir esa kamida 1 ta xorijiy tilni bilish har bir soha vakillari uchun zaruriyat qilib belgilangan.

Soha mutaxassislarning fikricha chet tillarini o'qitishda ko'p yuzaga kelayotgan asosiy sababi chet tilini o'rganuvchilarning yoshi bilan bog'liq bo hisoblanadi. Ular boshqa chet tillarini o'rganishni ancha ertaroq boshlash tavsiya etiladi ya'ni imkon qadar maktabgacha ta'lim va tarbiya yoshi 3-7 yoshligidan chet tilini o'rganish lozim. Maktabgacha yoshdagi bolalar ongida chet tilida boshlang'ich muloqot qobiliyatlarini ham tez rivojlanayotgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadi sifatida Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning asosiy maqsadi sifatida chet tilini o'rganish orqali kelajakda o'z maqsadlariga erishish va hayotiy aloqa -munosabatlarda o'z fikr va hissiyotlarni ifoda etish uchun chet tilidan foydalanish qobiliyatini shakllantirishni misol qilib olsak bo'ladi.

Chet tilini o'rganish maktabgacha yosh davridagi bolalarga o'rgatishning afzalroq tomoni shundaki, bolalar qancha yosh bo'lsa, uning so'z boyligi shuncha kam bo'ladi.

Masalan:3 yoshdagi bolalarda 300 -400 ta so'z boyligi, 4 yoshdagi bolalarda esa 500-600ta so'z boyligi mavjud bo'ladi. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan maktabgacha yoshi bolalik davrining katta qismini tashkil qiladi .Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyat turlari rivojlanib boradi.Ammo shuning birga uning nutqini egallashga bo'lgan ehtiyojlarini ham kam bo'ladi Bu shuni anglatadiki, bolalar chet tilini o'zlashtirganda ona tili va chet tillaridagi imkoniyatlar orasidagi farqni qariyb sezmaydi va uning muvaffaq hissini sezishlari yuqoriroq bo'ladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitish maktab o'quvchilari va katta yoshdagilarga qaraganda mutlaqob boshqacha uslubiy yondashuvni talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida chet tilini o'rgatish mashg'ulotlari uslubiy jihatdan nochor tashkil etilsa bolalar chet tiliga o'rganishga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishni sindirish mumkin. Maktabgacha yoshdagi chet tili o'rganishning dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarini o'z ichiga oladi.

Fonetik nuqtai nazaridan to'g'ri takrorlash qobiliyatini ya'ni inglizcha yoki rus tilidagi sizlarni. O'qituvchidan so'ng ya'ni to'g'ri talaffuz qilishni bosqichma bosqich shakllantirish. Chet tilidagi sizlarni o'zlashtirish birlashtirish va faollashtirish .Ma'lum miqdordagi sodda grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish izchil bayon qilish .

Maktabgacha yoshdagi bolalarda chet tiliga nisbatan ijobiy psixologik munosabatni yaratish kerak va bunday ijobiy motivatsiyani yaratish usuli o'yin hisoblanadi . Chet tili mashg'ulotlarini o'tkazishning o'yin shakli til ko'nikmalarini va nutq qobiliyatlarini o'zlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi .O'yin faoliyatidagi bolalarning o'z imkoniyatlariga ishonch ortadi va chet tilida nutq uchun turtki bo'ladi. Chet tilini o'qitish o'yin faoliyati ta'lim faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga chet tilini o'qilishda quyidagi o'yinlarni tavsiya qilishimiz mumkin.

- 1.Rolli o'yinlar
2. Raqobatlashib o'yinlar.
3. Musiqaviy o'yinlar.
4. Ijodiy o'yinlar.

Rolli o'yinlar ma'lum bir vaziyatda rol ijro etishni tashkil qiladi. Rol o'ynash bu bolalarning muayyan rollarni bajarishi turli xil hayotiy vaziyatlar o'ynaladigan o'yin faoliyati hisoblanadi. Misol uchun:sotuvchi-xaridor shifokor-bemor aktyor-muxlislar.

Raqobatdosh o'yinlar lug'atlar va chet tilidagi savodxonlikni oshiruvchi ko'plab o'yinlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bu turdagi o'yinlarda g'olibligini darsni va dars materiallarini yaxshi o'zlashtirgan bolalar qo'lga kiritishadi . Yana bir foydali tomoni shundaki, bu o'yin turi bolalarni bir birlari bilan musobaqalashuvga chorlaydi. Bu esa o'z o'zidan har bir bola g'olibligini uchun intiladi va dars mashg'ulotlarini yaxshi o'zlashtiradi. Bu turdagi o'yinlarga krassvordlar guruhga bo'linib ishlash lug'atlar chet tilidagi so'zlarni beixtiyor yozish o'yinlarini kiritishingiz mumkin. Bu o'yin turlarini yakkama yakkam qo'llaymiz.

Musiqaviy o‘yin an’anaviy o‘yinlardan farq qiladi. Masalan sheriklar tanlovi bilan raqsga tushadigan o‘yinlar bo‘lib, bu muloqot qobiliyatlarini o‘zlashtirishga emas balki fonetik jihatlarini yaxshilayabti. Til bolalar ruhiyatida botish uchun bu o‘yin turi yorda beradi. Musiqaviy o‘yin turida-bolalarga ritmik musiqalar qo‘yib berilishi ham mumkin. Bu bolalarga musiqa so‘zlarini ritmga xos tarzda oson yod olishga yordam beradi.

Ijodiy o‘yillar bolaning badiiy ijod chegarasida joylashgan o‘yin faoliyat turi hisoblanadi. Bu turdagi o‘yillar orqali bolalarning ichki dunyosining o‘rganishimiz mumkin. Ijodiy o‘yinlar bolalarning tasavvur dunyosini kengaytirib ham beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o‘rgatishning eng mashhur va oson usullaridan biri -axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishdir. Maktabgacha ta’lim muassasalarida bolalarga chet tilidagi ertak, hikoya yoki o‘quv filmlarini tinglash va tomosha qilish ancha qiziqroq. Multfilmlar-chet tilini o‘qilishda eng yaxshi yordamchi hisoblanadi. Yosh bolalar multfilmlarni tomosha qilishni yaxshi ko‘radilar va bu ularga positiv kayfiyat bag‘ishlandi. Yana bir jihati shundaki bolalar multfilm tomosha qilishga qiziqadi va undagi jummalarni takrorlashni yaxshi ko‘radilar. Multfilmalar bolalarga chet tilidagi nutq tovushlarini o‘rganishga ham yordam beradi.

Shunday qilib maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o‘qitishda o‘yin faoliyatlaridan va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bolalarningdars mashg‘ulotlarini yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Galsakova N.D Nikitenko Z.N. Chet tillarini o‘qitish nazariyasi va amaliyoti.boshlang‘ich maktab:uslubiy qo‘llanma .-M.: Airis-press,2004
2. M.Vohidov. ‘Bolalar psixologiyasi asoslari’.